



*Tarix fanlari*

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTIDA MADANIYAT MARKAZLARI  
FAOLIYATI VA UNDA YOSHLARNING O‘RNI**

**Topildiyev Odiljon Rahimjonovich**

*Namangan davlat pedagogika instituti  
ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasida dotsenti*

**Kurbanov Ravshan Raimjonovich**

*TDYU huzuridagi Namangan viloyat akademik  
litseyi o‘qituvchisi 3-darajali yurist  
O‘zbekiston tarixi-(Tarix) ixtisosligi bo‘yicha mustaqil izlanuvchi  
E-mail: [kurbanovravshan@gmail.com](mailto:kurbanovravshan@gmail.com)*

**DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.16833156>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi madaniyat markazlarining jamiyatdagi o‘rni, ularning rivojlanish bosqichlari va asosiy vazifalari O‘zbekiston va xususan, Farg‘ona, Andijon hamda Namangan viloyatlarida madaniyat va san‘at sohasida amalga oshirilgan islohotlar, madaniyat markazlari, teatrlar, kutubxonalar, muzeylar va konsert tashkilotlari faoliyati yoritilgan.

**Kalit so‘zlar:** Yangi O‘zbekiston, madaniyat markazlari, madaniy meros, folklor ekspeditsiya, to‘garak, teatr, muzey, xalq ijodi, milliy qadriyatlar.

**Abstract:** This article discusses the role of cultural centers of the Republic of Uzbekistan in society, their stages of development and main tasks, the reforms implemented in the field of culture and art in Uzbekistan, and in particular, in the Fergana, Andijan and Namangan regions, the activities of cultural centers, theaters, libraries, museums and concert organizations.

**Keywords:** New Uzbekistan, cultural centers, cultural heritage, folklore expedition, circle, theater, museum, folk art, national values.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль культурных центров Республики Узбекистан в обществе, этапы их развития и основные задачи, реформы, проводимые в сфере культуры и искусства в Узбекистане, и в частности, в Ферганской, Андижанской и Наманганской областях, деятельность культурных центров, театров, библиотек, музеев и концертных организаций.

**Ключевые слова:** Новый Узбекистан, культурные центры, культурное наследие, фольклорная экспедиция, кружок, театр, музей, народное творчество, национальные ценности.

**KIRISH VA DOLZARBLIGI**

Madaniyat va sa‘natni rivojlanishi bilan xalqning ma‘naviy qiyofasi ham rivojlanib boradi. O‘zbekiston Respublikasining har bir fuqarosi, eng avvalo, Vatan, xalq, millat ma‘naviy merosidan yaxshi xabardor bo‘lishi shart. Chunki, ajdodlar tomonidan yaratilgan madaniy boyliklarni bilmagan kishi Vatan taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘sha olmaydi. Bugungi kun yoshlari umumbashariy madaniyatdan ham xabardor bolishi zarur. Chunki boshqa xalqlar madaniyati va san‘ati uning yaratilish



jarayoni, madaniyatlarning o‘zaro bog‘liqligi va bir-biriga ta’sir etishi jarayonidan xabardor bo‘lgan kishigina o‘z ajdodlarining ma’naviy boyliklarining qadriga yetadi, ularni asrab-avaylab, keyingi avlodlariga yetkazishga o‘z hissasini qo‘sha oladi.

Keyingi yillarda mamlakat xalqining ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirib kelindi.

Shuningdek, mamlakatda madaniyat va san’atni qo‘llab-quvvatlash, milliy-madaniy va ma’naviy merosni saqlash hamda ko‘paytirish, xalqni milliy va jahon madaniyatining eng yaxshi namunalari bilan tanishtirish, moddiy-texnik bazani yaxshilash va xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mavzuni tadqiq etishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

### **METODLAR VA O‘RGANILISH DARAJASI**

Madaniyat va san’at sohasining rivoji, yoshlarning ijtimoiy faolligi, ma’naviy tarbiyasi, sog‘lom turmush tarzi kabi masalalar bo‘yicha bir qator olimlar – D.G‘ulomova, O.Jamoldinova, X.Xaqnazarov, Sh.Rahimov, S.Mirzaxolov, I.Ergashev, O.Topildiyev va boshqalar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarda yoshlarning ta’limga, sog‘lom turmush tarziga, ijtimoiy-siyosiy hayotdagi ishtirokiga oid jihatlar yoritilgan. Biroq, aynan madaniyat markazlarining yoshlar bilan ishlashdagi o‘rni, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishdagi faoliyati, to‘garaklar tizimi, malakali yosh mutaxassislar bilan ta’minlanish holati kabi masalalar maxsus va tizimli tarzda tadqiq etilmagan. Shu sababli bu mavzu hali yetarli darajada o‘rganilmagan va alohida ilmiy izlanishni talab etadi.

### **TADQIQOT NATIJALARI**

Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti jarayonida madaniyat va san’at sohasining izchil rivojlanishi, ayniqsa, madaniyat markazlari faoliyatining kengayib borayotgani yoshlarning ma’naviy-axloqiy kamoloti, estetik dunyoqarashi va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda muhim omilga aylangan. Bugungi kunda madaniyat markazlari nafaqat madaniy-ma’rifiy tadbirlar maskani, balki yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalash, turli san’at to‘garaklariga jalb etish va ijtimoiy faolligini oshirishning samarali platformasi sifatida faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, bu markazlarda tashkil etilgan to‘garaklar orqali yoshlar o‘zining qiziqish va iste’dodlarini namoyon etish imkoniga ega bo‘lib, ular bilan ishlovchi malakali yosh mutaxassislar ishtiroki mazkur jarayonning sifatli amalga oshirilishini ta’minlamoqda. Shu bilan birga, hududiy madaniyat markazlarining, xususan, Farg‘ona vodiysi viloyatlaridagi faoliyatini tahlil qilish shuni ko‘rsatmoqdaki, ular yoshlarni san’at va madaniyatga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni yot g‘oyalardan himoya qilish, Vatanga sadoqatli va barkamol shaxs



sifatida tarbiyalashda beqiyos rol o'ynamoqda. Shunday ekan, madaniyat markazlari faoliyatini chuqur ilmiy asosda o'rganish va ularning yoshlar hayotidagi o'rnini tizimli tahlil qilish nafaqat bugungi kun, balki ertangi taraqqiyotimiz uchun ham dolzarb masala hisoblanadi.

Madaniyat va san'at sohasi xalqimizning ma'naviy qiyofasini, uning hayot tarzini ko'rsatib beradigan, insonlar bilan ishlaydigan soha hisoblanadi.

Aholining madaniy hordiq chiqarishi, ma'naviy-ma'rifiy ozuqa olishida hududlardagi madaniyat markazlarining faoliyati alohida ahamiyatga ega. Ushbu markazlarda tashkil etiladigan madaniy-ma'rifiy tadbirlar, konsert-tomosha dasturlari hamda kutubxona va turli yo'nalishdagi to'garaklar yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyatga ega.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida madaniyat markazlari faoliyati tarixiga e'tibor berilsa avvalo, 2013 yil 25-iyunda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2013-2018-yillarda zamonaviy madaniyat va aholi dam olish markazlarini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 178-son qarori asosida respublika hududlari bo'ylab dastlabki madaniyat va aholi dam olish markazlari tashkil etildi.

Madaniyat markazlari faoliyatini yanada takomillashtirish maqsadida 2019-2020-yillarda madaniyat markazlari faoliyatini yanada rivojlantirish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturida "Madaniyat markazlari" faoliyatiga oid quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritish belgilandi, hamda quyidagi nizomlar:

- Madaniyat markazlari to'g'risidagi nizom;
- Madaniyat markazlari faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilash tartibi to'g'risidagi nizom ishlab chiqib tasdiqlandi.

Shuningdek, "Madaniyat markazlari" tomonidan aholiga ko'rsatilayotgan xizmatning sifati va o'tkazilayotgan tadbirlarning mazmundorligini oshirish maqsadida ularning joylashgan o'rnini va xizmat ko'rsatiladigan aholi sonidan kelib chiqib, madaniyat markazlarining namunaviy shtat jadvallarini qayta ko'rib chiqib tasdiqlandi<sup>[1]</sup>.

2024 yil yakunida mamlakatdagi mavjud 837 ta madaniyat markazlari tomonidan jami 26 mingdan ortiq madaniy-ma'rifiy va konsert-tomosha dasturlari tashkil etilib, 2,5 mln. Nafar tomoshabin jalb etilgan. Shundan, 1,5 mln. nafardan ziyod yoshlar qamrab olingan.<sup>[2]</sup>

Shuningdek, madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati yo'lga qo'yilib, nomoddiy madaniy meros namunalarini tadqiq etish

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma'lumotlari. 2019 yil yakuniy hisobotlari.

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024-yil hisoboti



maqsadida, 13 ta mahalliy va 1 ta xorijiy folklor ekspeditsiyalar tashkil etildi va 250 ga yaqin nomoddiy madaniy meros namunalarining dastlabki hujjatlari tayyorlandi, internet va ijtimoiy tarmoqlarda targ'ib etishga qaratilgan 50 ta audiovisual asarlar yaratildi. "Rubob yasash va ijrochilik an'analari" bilan bog'liq nomoddiy madaniy meros namunasi YUNESKOning xalqaro representativ ro'yxatiga kiritildi.

Buning natijasida 2019-2024 yillar davomida 826 ta madaniyat markazida ta'mirlash va jihozlash ishlari amalga oshirilib, ulardagi to'garaklar soni 8 ming 500 taga ko'payadi, to'garaklarga 100 ming nafardan ko'proq aholi qamrab olindi.[<sup>3</sup>]

Farg'ona viloyati miqiyosida madaniyat markazlari – 83 tani tashkil etadi.[<sup>4</sup>] Bugungi kunda mazkur madaniyat markazlarida 424 ta to'garaklar faoliyat yuritib, 5413 nafar ishtirokchilarni qamrab olgan. Har bir madaniyat markaziga o'rtacha 4-5 tadan to'garak, har bir to'garakda 13-14 tadan ishtirokchi to'g'ri keladi. Jami 1447 dona musiqa cholg'ulari mavjud bo'lib, har bir madaniyat markaziga o'rtacha 17 donadan to'g'ri keladi. 31 ta madaniyat markazi 150-400 o'rinli o'z konsert-tomosha zaliga ega. Madaniyat markazlarida 74 ta "Xalq xavaskorlik jamoasi" faoliyat olib boradi.[<sup>5</sup>]

Farg'ona viloyatida davlat teatrlari soni 5 tani tashkil etadi. Farg'ona viloyat teatr va konsert saroyi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 25 iyundagi "Farg'ona viloyat Teatr-konsert saroyi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 170-sonli qaroriga asosan tashkil etilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 25-yanvardagi PQ-2744-sonli Qaroriga asosan teatr-konsert saroyiga Islom Karimov nomi berilgan.[<sup>6</sup>] Islom Karimov nomidagi viloyat teatr va konsert saroyi tomonidan 2017-2024-yil davomida 500 ga yaqin konsert va madaniy ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, tadbirlarga ta'lim muassasalari o'quvchilari hamda uyushmagan yoshlar qamrab olingan.

Farg'ona viloyati teatrlari tomonidan 2019-2025 yillar davomida yiliga 5 tadan, davlat teatri tomonidan jami 427 marotaba turli sahna ko'rinishlari, shundan 116 ta gastrol va ko'chma spektakllar namoyishi tashkil etilib, mazkur namoyishlarga 105000 nafar yoshlar jalb etildi. Bunda, teatrlar tomonidan rasmiy bayramlarni nishonlash davrida "Ochiq eshiklar" kuni munosabati bilan 133 ta sahna ko'rinishlari 37102 nafar viloyat aholisi uchun bepul namoyish etildi.[<sup>7</sup>]

Farg'ona viloyatida madaniyat va san'at sohasiga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari soni 32 tani tashkil etadi. Shundan – 30 ta bolalar musiqa va san'at

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma'lumotlari. 2019-2024-yil hisobotlari.

<sup>4</sup> Farg'ona viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2019-2024-yil hisobotlari.

<sup>5</sup> Farg'ona viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024-yil hisobotlari.

<sup>6</sup> O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 25 iyundagi "Farg'ona viloyat Teatr-konsert saroyi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi 170-sonli qarori. // <https://www.lex.uz/docs/-2415985>

<sup>7</sup> Farg'ona viloyat teatr va konsert saroyi hisobotlari. 2024 yil hisobotlari.



maktablari, 1ta ixtisoslashtirilgan san'at maktabi, 1ta ixtisoslashtirilgan maqom maktab-internati. Mazkur ta'lim muassasalarida hozirda 8951 nafar (o'quvchilar soni 2022/2023 o'quv yiliga nisbatan 10 % ko'paygan) o'quvchilar ta'lim olmoqda. Ularga 1838 nafar o'qituvchilar dars mashg'ulotlarini o'tib kelmoqda. 2023-2024 yillar davomida 262 nafar yoshlar respublika va halqaro tanlovlarda ishtirok etib, ularning 215 nafari (82,1%) g'oliblikni qo'lga kiritgan. 2024-2025 o'quv yilida bitiruvchilar soni jami 1360 nafarni tashkil etadi.

O'zbekiston davlat filarmoniyasining Farg'ona viloyati bo'linmasida 33 nafar ishchi-xodimlar faoliyati ko'rsatib kelmoqda (14 nafar xonanda, 12 nafar sozanda hamda 7 nafar raqqosalar). 2023-yil davomida jami 13 ta konsert namoyish etildi. Shundan, 7 ta madaniy tadbirlar qishloq joylarida o'tkazilgan. Konsertlardagi jami tomoshabinlar soni 38600 nafarni tashkil etdi. Farg'ona viloyat bo'linmasi tomonidan 46 mln. 500 ming so'm mablag' ishlab topilgan. Shuningdek, 2022-2023, 2023-2024, 2024-2025 o'quv yilida ta'lim muassasalarida 9 ta lektoriy konsertlar tashkil etilgan. 2023-yilning 30-31-oktyabr kunlari Jizzax viloyatida O'zbekiston davlat filarmoniyasi hududiy bo'limlari o'rtasida o'tkazilgan 3-respublika ko'rik tanlovida Farg'ona viloyati hududiy bo'limi 2-o'rinni egallab 200 million so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi.[<sup>8</sup>]

O'zbekkonsert davlat muassasasi Farg'ona viloyati bo'limida 4 nafar ishchi-xodim faoliyat ko'rsatib kelmoqda. 2019-2024 yilda 210 ta konsert-tomosha tadbirlari o'tkazilgan. Shundan 26 ta pullik va 184 ta davlat va xayriya tadbiri hisoblanadi.[<sup>9</sup>] Barcha tadbirlarda ta'lim muassasalaridagi va uyushmagan yoshlar qamrab olingan.

Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazida 500,000 dan ortiq kitoblar mavjud. Kutubxona bir vaqtning o'zida 300 dan ortiq o'quvchiga xizmat ko'rsatadi. Zamonaviy ko'rinishga ega bo'lgan binoda bookcafe, 5 ta o'quv zali, ilmiy-tadqiqot, bolalar va o'smirlarga xizmat ko'rsatish, nodir fotosuratlar bo'limlari mavjud. Eng nodir kitoblar esa alohida talablar asosida saqlanadi. Xorijiy tillarda chop etilgan adabiyotlarni o'qish uchun alohida 60 o'rinli zal mavjud.[<sup>10</sup>] Bu yerda masofadan turib kitob o'qish uchun imkoniyat yaratilgan. Shuningdek, Farg'ona viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi ham mavjud. Kutubxona o'z binosiga ega. Mazkur kutubxonaning 9 ta tuman (shahar) filiallari mavjud. Kutubxonada jami kitob fondi 27868 ta bo'lib, Brayl yozuvida 8235 ta, bosma harfli 12529 ta, audio (elektron disk) 4370 ta va boshqa 2734 ta adabiyotlar mavjud.[<sup>11</sup>]

<sup>8</sup> O'zbekiston davlat filarmoniyasining Farg'ona viloyati bo'linmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

<sup>9</sup> O'zbekkonsert davlat muassasasi Farg'ona viloyati bo'limi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

<sup>10</sup> Ahmad Farg'oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024 yil hisobotlari.

<sup>11</sup> Farg'ona viloyat ko'zi ojizlar maxsus kutubxonasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024 yil hisobotlari.



Farg‘ona viloyatida 8 ta madaniyat va istirohat bog‘i mavjud. Barcha madaniyat va istirohat bog‘larining faoliyati mahaliy hokimliklar tomonidan yuritilmoqda.

Farg‘ona viloyatida davlat-xususiy sheriklik asosida tashkil etilishi belgilangan madaniyat va san‘at muassasalari soni – 7 tani tashkil etadi. Shundan 7 ta ob‘yekt xususiy sheriklik asosida tashabbuskor tadbirkorlarga berilgan. Xususan, Beshariq tumanida 300 o‘rinli, Rishton tumanida 2 ta 400 va 300 o‘rinli, Oltiariq tumanida 3 ta 250 o‘rinli, Farg‘ona tumani 1 ta 200 o‘rinli madaniyat markazlari qaytadan tashkil etildi.<sup>[12]</sup>

Andijon viloyatida madaniyat markazlari – 71 tani tashkil etadi.<sup>[13]</sup> Ulardan 30 tasi namunaviy tipdagi madaniyat markazlari hisoblanadi. 2020 yil davomida 2067 ta turli mavzularda 2067 ta tadbirlar o‘tkazildi. Ulardagi ishtirok etgan qatnashchilar soni jami 684,1 ming nafar bo‘lib, ularning 71 ming nafari 18 yoshgacha bo‘lgan yoshlar hissasiga to‘g‘ri keldi.<sup>[14]</sup> Bugungi kunda mazkur madaniyat markazlarida 235 ta to‘garaklar faoliyat yuritib, 3809 nafar ishtirokchilarni qamrab olgan. Har bir madaniyat markaziga o‘rtacha 5-10 tadan to‘garak, har bir to‘garakda 13-14 tadan ishtirokchi to‘g‘ri keladi. Jami 867 dona musiqa cholg‘ulari mavjud bo‘lib, har bir madaniyat markaziga o‘rtacha 12 donadan to‘g‘ri keladi. 21 ta madaniyat markazi 150-400 o‘rinli o‘z konsert-tomosha zaliga ega. Madaniyat markazlarida jami 82 ta “Badiiy xavaskorlik jamoasi” faoliyat olib boradi.<sup>[15]</sup> Ushbu madaniyat markazlarida 2019-2024 yillar davomida (yiliga o‘rtacha 1938 ta ommaviy-madaniy tadbirlar o‘tkazilgan) jami 10 mingga yaqin ommaviy-madaniy tadbirlar o‘tkazilgan.

Andijon viloyatida davlat teatrlari soni 3 tani tashkil etadi. Andijon viloyatida 2010-2024-yil oralig‘ida 3 ta professional teatr jamoalari faoliyat ko‘rsatgan.<sup>[16]</sup> Jumladan: Andijon viloyat musiqa va drama teatri, Andijon viloyati yosh tomoshabinlar teatri, Andijon viloyat bolalar qo‘g‘irchoq teatri. Ushbu teatrlar tomonidan 2020 yil davomida 205 ta spektakllar tomoshabinlarga taqdim etildi. Jumladan: 30 ta drama, 55 ta yosh tomoshabinlar va 120 ta qo‘g‘irchoq teatrlari spektakllari. Teatrga kelgan jami tomoshabinlar soni 41,2 ming kishini tashkil etdi va ularning 28 ming nafarini yoshlar tashkil qildi.<sup>[17]</sup> 2024-yil mobaynida ushbu teatrlarda 589 ta spektakl namoyish etilib, ularga jami 159,5 ming tomoshabin tashrif

<sup>12</sup> Farg‘ona viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma‘lumotlari. 2025-yil 1yarim yillik hisoboti.

<sup>13</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma‘lumotlari. 2024-yil hisoboti.

<sup>14</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma‘lumotlari. 2020-yil hisoboti.

<sup>15</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma‘lumotlari. 2025-yil 1yarim yillik hisoboti.

<sup>16</sup> Andijon viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma‘lumotlari. 2024-yil hisoboti. // <https://andstat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

<sup>17</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma‘lumotlari. 2020-yil hisoboti.



buyurgan va ularning 100 ming nafardan ortig'ini o'quvchi hamda talaba yoshlar tashkil qilgan.[<sup>18</sup>]

Andijon viloyatida axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni 2010-2014 yillarda 246 tani, 2015-2018 yillarda 250 tani, 2019-2024 yillarda 30 tani tashkil qildi.[<sup>19</sup>] Bunga sabab viloyat hududidagi kollejlarda tarkibidagi axborot-resurs markazlari maktablar hisobiga o'tib ketgani bilan bog'liq. 2020-yilda Andijon viloyatida kutubxona muassasalari soni 30 tani tashkil etdi. Kitob va jurnallar soni 6654,9 ming nusxadan iborat bo'lib, ulardan foydalanuvchi kitobxonlar soni 274,9 ming kishidan iborat.[<sup>20</sup>]

Andijon viloyatida 2010-2017 yillar oralig'ida jami 9 ta muzey va ularning filiallari faoliyat yuritgan.[<sup>21</sup>] 2018-2020-yillarda Andijon viloyatida 2 ta muzey faoliyat ko'rsatdi. Jami asosiy fond eksponatlar soni 110342 tadan iborat bo'lib, ulardan 192 tasi noyob eksponatlar hisoblanadi. 2020-yil davomida tashrif buyurganlar soni 40,5 ming kishini tashkil etdi. Ulardan 18,6 ming nafari o'quvchi va talaba yoshlardan iborat bo'lgan. 2022-yilda Andijon viloyatida 3 ta muzey faoliyat ko'rsatgan. 2022 yil davomida muzeyga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 167,7 ming nafardan iborat. Ulardan 79,1 ming nafari yoki 47,2 % o'quvchi va talaba yoshlar hissasiga to'g'ri keladi. Tashrif buyuruvchilar soni o'tgan yilga nisbatan 18,2 ming nafarga ko'paygan. 2022-yilda viloyat muzeylarida 48 ta turli mavzudagi maruzalar o'tkazildi. Bundan tashqari 11 ta ko'rgazmalar tomoshabinlarga havola etildi. Muzeylar tomonidan 290 ta ekskursiyalar tashkil etildi. Ekskursiya tarzidagi tadbirda qatnashgan ishtirokchi yoshlar soni 83,4 ming nafardan iborat.[<sup>22</sup>] 2023-2025-yillarda 7 ta muzey faoliyat ko'rsata boshladi.[<sup>23</sup>]

2018-2024-yilda Andijon viloyatida 5 ta konsert tashkilotlari faoliyat ko'rsatdi, ulardan 2 tasi filarmoniya va 3 tasi gastrol – konsert jamoalari hisoblanadi.[<sup>24</sup>] 2020 yil davomida 129 ta konsert dasturlari 92,8 ming tomoshabinlarga namoyish etildi. Jami tomoshabinlarning 15,0 ming nafarini qishloq aholisi tashkil etadi. Ko'rsatilgan konsert dasturlarining 110 tasi filarmoniya, qolgan 19 tasi gastrol- konsert hisoblanadi.

Andijon viloyatida madaniyat va san'at soxasiga ixtisoslashgan ta'lim muassasalari soni 29 tani tashkil etadi. Shundan – 28 ta bolalar musiqa va san'at

<sup>18</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024-yil hisoboti.

<sup>19</sup> Andijon viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024-yil hisoboti. // <https://andstat.uz/uz/rasmiy-statistika/social-protection-2>

<sup>20</sup> Andijon viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2020-yil hisoboti

<sup>21</sup> Andijon viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2010-2017-yillardagi hisoboti.

<sup>22</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2022-yil hisoboti.

<sup>23</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2025-yil 1-yarim yillik hisoboti.

<sup>24</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2018-2024-yillar hisoboti.



maktablari, 1ta ixtisoslashtirilgan san'at maktabi.[<sup>25</sup>] 2024 yil 16-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning Andijon shahriga tashrifida ixtisoslashtirilgan san'at maktabini "Musiqqa va san'at kollejiga" aylantirib unga marhum san'atkor, O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti, Alisher Navoiy mukofoti sovrindori Sherali Jo'rayev nomini berish taklif qildi.[<sup>26</sup>]

Namangan viloyatida madaniyat markazlari – 80 tani tashkil etadi. Keyingi paytda ularning 45 tasi mukammal ta'mirdan chiqarilib, zamonaviy qiyofaga kiritildi.[<sup>27</sup>] 45 ta madaniyat markazi 150-400 o'rinli o'z konsert-tomosha zaliga ega. Bugungi kunda mazkur madaniyat markazlarida 320 ta to'garaklar faoliyat yuritib, 4480 nafar ishtirokchilarni qamrab olgan. Har bir madaniyat markaziga o'rtacha 5-6 tadan to'garak, har bir to'garakda 13-14 tadan ishtirokchi to'g'ri keladi. Jami 960 dona musiqa cholg'ulari mavjud bo'lib, har bir madaniyat markaziga o'rtacha 12 donadan to'g'ri keladi.[<sup>28</sup>]

2020 yilda Namangan viloyatidagi madaniyat markazlari tomonidan jami 3004 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, ulardan 42,5 % (1278 ta)ni ommaviy, madaniy-ma'rifiy tadbirlari, 30,5 % i (918 ta) mavzuli, adabiy-badiiy kechalar, 9,2 % i (276 ta) teatrlashtirilgan tomoshalar va xalq sayllari, 17,7 % i (532 ta) konsertlar ulushiga to'g'ri keladi va ularda 758 ming nafar yoshlar ishtirok etgan.[<sup>29</sup>] 2024 yilda madaniyat markazlari tomonidan jami 3200 ta madaniy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazilib, 950 ming nafardan ortiq kishi jalb etildi va ularning 70 foizdan ortig'ini yoshlar tashkil etgan.

Namangan viloyatida 2023-yilda jami muzeylar soni 2 tani tashkil etgan. Shundan, muzey filiallari soni 1 taga teng. Muzeylarga tashrif buyuruvchilar soni esa, 83,5 ming kishidan iborat bo'lib, ulardan o'quvchi va talabalar ulushi 52,9 % ni tashkil etgan.[<sup>30</sup>] Muzeylarda 31 marta ko'rgazmalar, 504 ta ma'ruzalar, 517 ta ekskursiyalar tashkil qilindi.

Namangan viloyatida 1991 yildan 2022 yilgacha 1 ta Alisher Navoiy nomidagi davlat musiqali drama teatri faoliyat olib borgan.[<sup>31</sup>] 2023-yilda viloyatdagi jami teatrlar soni 2 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich viloyat qo'girchoq teatri hisobiga 1 donaga ko'payganini ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi "Madaniyat va san'at sohasining jamiyat hayotidagi o'rni va ta'sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6000-son Farmonining 9-bandiga asosan

<sup>25</sup> Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024-yil hisoboti.

<sup>26</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024 yil 16-fevralda Andijon shahriga tashrifidagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi, 2024 16 fevral.

<sup>27</sup> Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2024-yil hisoboti.

<sup>28</sup> Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2025-yil 1-yarim yillik hisoboti.

<sup>29</sup> Namangan viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2020-yil hisoboti.

<sup>30</sup> Namangan viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2023-yil hisoboti.

<sup>31</sup> Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma'lumotlari. 2022-yil hisoboti



Namangan viloyatida qo‘g‘irchoq teatri tashkil etildi.<sup>[32]</sup> Namangan viloyat qo‘g‘irchoq teatrining 2024 yil 10-fevral kuni tantanali ochilish marosimi tashkil etilib, rasman ish faoliyatini 16 apreldan boshladi. 2024 yilda viloyatdagi mavjud 2 teatlarda namoyish etilgan spektakllar (tomoshalar) 261 tadan iborat bo‘ldi. Taqdim etilgan spektakllarga tashrif buyurgan tomoshabinlar soni 76,0 ming nafarni tashkil etgan.<sup>[33]</sup>

Namangan viloyatida 2019-2024-yillarda jami faoliyat ko‘rsatayotgan konsert tashkilotlari soni 2 ta bo‘lib. Konsert tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan konsertlar soni 2023-yilda 198 tani tashkil etgan. Shuningdek, tinglovchilar soni jami 94,1 ming nafarga teng bo‘lgan.<sup>[34]</sup>

Namangan viloyatida axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni 2010 yildan 2014 yilgacha 208 tani, 2015-2018 yillarda 210 tani, 2019-2020 yillarda 18 tani tashkil qildi.<sup>[35]</sup> Namangan viloyati, Namangan shahar Davlatobod tumanida joylashgan “Yangi O‘zbekiston-yoshlar ziyo maskani” axborot kutubxona 2021-yilning 19-mart kuni o‘z faoliyatini boshladi. 2021 yildan boshlab viloyatda axborot-resurs va axborot-kutubxona markazlari soni 18 tani tashkil qilmoqda.<sup>[36]</sup> Bu kutubxonalariga tashrif buyuruvchilarning asosiy qismini yoshlar tashkil qilmoqda. 2022-2024 yillarda Namangan viloyatida 1 ta Nodirabegim nomidagi viloyati axborot-kutubxona markazi, 12 ta tuman (shahar) axborot-kutubxona markazlari, Oliy ta’lim muassasalari tasarrufidagi 17 ta axborot-resurs markazlari, Maktabgacha va maktab ta’limi tasarrufidagi o‘rta maktablarda - 712 ta maktab kutubxonalari, shuningdek, viloyat maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasiga qarashli 1 ta bolalar kutubxonasi, 63 ta kasbiy talimni rivojlantirish va muvofiqlashtirish hududiy boshqarmasi tasarrufidagi professional talim muassasalaridagi axborot-kutubxonalari, Madaniyat boshqarmasiga qarashli 35 ta kutubxona, shuningdek, 13 ta ko‘zi ojizlar kutubxonalari faoliyat ko‘rsatmoqda. Ushbu kutubxonalarning kitob fondidagi jami adabiyotlar soni 5,1 mln nusxadan ortiqni tashkil etadi.<sup>[37]</sup>

Xulosa qilinsa, madaniyat markazlari yoshlar o‘rtasida madaniy-ma’rifiy ishlarni olib borish, ularning bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish bo‘yicha asosiy yo‘nalishlar ishlab chiqib, to‘garaklar faoliyatini tashkil etib, markazni malakali mutaxassis yosh kadrlar bilan ta’minlash borasida keng qamrovli ish faoliyatini olib bormoqda. So‘nggi yillarda Yangi O‘zbekistonda madaniyat va san’at sohasini tubdan isloh qilish va takomillashtirish, madaniyat va san’at muassasalarini davlat

<sup>32</sup> O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmoni. // Xalq so‘zi, 2020 yil 26 may.

<sup>33</sup> Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024-yil hisoboti.

<sup>34</sup> Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2023-yil hisoboti

<sup>35</sup> Namangan viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2010-2020-yil hisobotlari

<sup>36</sup> Namangan viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2021-yil hisoboti.

<sup>37</sup> Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024-yil hisoboti.



tomonidan qo‘llab-quvvatlashning samarali tizimini yaratildi va tizimli ishlar olib borilmoqda.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi joriy arxivi ma’lumotlari. 2019-2024 yil yakuniy hisobotlari.
2. Farg‘ona viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2019-2024-yil hisobotlari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2014 yil 25 iyundagi “Farg‘ona viloyat Teatr-konsert saroyi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 170-sonli qarori. // <https://www.lex.uz/docs/-2415985>
4. Farg‘ona viloyat teatr va konsert saroyi hisobotlari. 2024 yil hisobotlari.
5. O‘zbekiston davlat filarmoniyasining Farg‘ona viloyati bo‘linmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024-2025 yil hisobotlari.
6. O‘zbekkonsert davlat muassasasi Farg‘ona viloyati bo‘limi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.
7. Ahmad Farg‘oniy nomidagi viloyat axborot-kutubxona markazi joriy arxivi ma’lumotlari. 2024 yil hisobotlari.
8. Andijon viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2020-2025 yil hisoboti.
9. Andijon viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2010-2020 yil hisoboti
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2024 yil 16-fevralda Andijon shahriga tashrifidagi ma’ruzasi. // Xalq so‘zi, 2024 16 fevral.
11. Namangan viloyati Madaniyat boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2020-2025 yil hisoboti.
12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 maydagi “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o‘rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6000-son Farmoni. // Xalq so‘zi, 2020 yil 26 may.
13. Namangan viloyati Statistika boshqarmasi joriy arxivi ma’lumotlari. 2010-2021-yil hisobotlari